



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI***(2019 yil yanvar-may)*

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha joriy yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 196,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,3 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 263,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 159,4 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1 932,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 105,0 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,3 %) tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**

2018 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri, Beruniy, To'rtko'l va Qo'ng'iro't tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'rish sur'atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 30,1 %), Xo'jayli (9,6 %), Beruniy (9,4 %), To'rtko'l (8,9 %) va Qo'ng'iro't (7,1 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 59,4 %ga o'sdi va 263,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,0 %iga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 1 932,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 3,7 %ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,0 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2018 yil
yanvar-may

2019 yil
yanvar-may



Yirik korxonalar
Kichik tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



Kichik tadbirkorlik
Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Qonliko`l (99,8 %), Qorao`zak (99,7 %), Nukus (99,4 %), Kegeyli (99,4 %) va Taxtako`pir (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,0 %ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (30,6 %), Taxiato`sh (18,4 %) va To`rtko`l (9,8 %) tumanlarida kuzatilgan.

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	263 690,6	159,4	1 932 412,2	103,7
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	7 161,0	81,8	143 424,8	108,1
Beruniy	4 629,6	93,4	200 988,2	107,8
Qonliko`l	125,9	2,0 m	58 450,8	105,4
Qorao`zak	230,3	67,9	76 972,9	106,1
Kegeyli	276,2	102,4	47 123,6	104,3
Qo`ng`irot	6 002,1	178,7	150 109,9	104,9
Mo`ynoq	281,4	101,6	16 016,9	104,4
Nukus	240,1	69,3	40 039,8	105,0
Taxiato`sh	9 501,6	95,5	42 035,2	108,7
Taxtako`pir	358,0	88,9	59 741,5	105,5

To`rtko`l	19 098,1	87,3	176 405,1	109,7
Xo`jayli	4 312,6	155,1	205 701,8	105,7
Chimboy	7 259,5	100,6	83 103,0	104,8
Shumanay	328,1	164,0	48 647,9	105,1
Ellikqal`a	2 179,4	2,1 m	125 321,7	104,4
Nukus sh.	201 706,5	194,6	458 329,2	95,9

2019 yil yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo`yicha aholi jon boshiga 1 172,8 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,7 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-may oylarida o`tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o`sish qayd etilib, eng yuqori ko`rsatkichlar Nukus shahri (2 091,4 ming so`m), Xo`jayli (1 731,4 ming so`m) va Taxtako`pir (1 506,3 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Mo`ynoq (520,7 ming so`m), Kegeyli (529,6 ming so`m) va Taxiato`sh (707,0 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich respublika tumanlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 172,8	106,7
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	769,9	104,5
Beruniy	1 093,7	105,3
Qonliko`l	1 162,2	104,3
Qorao`zak	1 473,3	105,1
Kegeyli	529,6	103,6
Qo`ng`irot	1 214,9	105,3
Mo`ynoq	520,7	103,0
Nukus	818,7	102,8
Taxiatosh	707,0	104,7
Taxtako`pir	1 506,3	104,8
To`rtko`l	927,9	105,1
Xo`jayli	1 731,4	105,0
Chimboy	783,7	103,3
Shumanay	880,9	104,6
Ellikqal`a	815,2	103,0
Nukus shahri	2 091,4	112,0

Jumladan, 2019 yilning yanvar-may oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,0 % ni tashkil etib, 66,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 98,8 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-may)

Yil boshidan respublika bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 685,2 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 18,7 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-may oylari yakunlariga ko`ra 399,7 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 100,8 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 58,3 % ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko`rsatkichni tumanlar bo`yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qo`ng`irot, Qorao`zak, Qonliko`l, Mo`ynoq, Taxtako`pir, Ellikqal`a va Nukus tumanlarida 100 % ni tashkil etgan.

Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 41,7 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo`jayli (jamiga nisbatan ulushi – 95,6 %) Nukus shahri (37,0 %) va Amudaryo (21,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	685 236,3	118,7	285 575,7	157,7	399 660,7	100,8
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	5 536,7	120,3	1 163,7	4,4 m	4 373,0	100,9
Beruniy	28 290,8	100,3	-	-	28 290,8	100,9
Qonliko`l	6 006,2	100,9	-	-	6 006,2	100,9
Qorao`zak	1 149,4	100,8	-	-	1 149,4	100,8
Kegeyli	334,7	97,5	0,5	4,0	334,3	100,7
Qo`ng`iroq	11 368,0	100,7	-	-	11 368,0	100,8
Mo`ynoq	462,5	100,7	-	-	462,5	100,7
Nukus	40 623,4	100,7	-	-	40 623,4	100,7
Taxiatosh	11 256,6	100,0	333,1	73,8	10 923,5	101,0
Taxtako`pir	4 266,8	100,5	0,1	0,5	4 266,6	101,1
To`rtko`l	18 818,8	90,7	1 382,9	40,2	17 435,9	100,8
Xo`jayli	151 591,8	194,8	144 950,4	2,0 m	6 641,4	100,8
Chimboy	7 373,3	93,4	383,8	39,1	6 989,6	101,1
Shumanay	96,8	91,4	2,3	19,1	94,5	100,7
Ellikqal`a	26 549,6	100,7	-	-	26 549,6	100,7
Nukus sh.	371 511,1	110,3	137 358,9	131,4	234 152,2	100,9

Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati To'rtko'l (90,7 %) tumanida qayd etildi.